## JAHON BANKINING O‘ZBEKISTONDAGI DASTURI

### 2024-yil, aprel

## O‘zbekistondagi so‘nggi tendensiyalar

| **O‘zbekiston** | **2023** |
|---|---|
| Aholi soni (mln kishi) | 36,2 |

## O‘zbekistondagi faoliyat strategiyasi

### Jahon banki portfeli

| | |
|---|---|
| Amaldagi loyihalar soni | 27 |
| Qarzlar | 6,07 mlrd AQSH dollari |
| XTTB | 2,34 mlrd AQSH dollari |
| XTA | 3,68 mlrd AQSH dollari |

2022-yil may oyida Jahon banki Ijroiya direktorlar kengashi Jahon Banki guruhi (JBG) va O zbekiston o rtasidagi yangi Hamkorlik dasturini (HD) tasdiqladi. Hujjatda Yangi O zbekistonning 2022 2026-yillarga mo ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga ko maklashish maqsadida kelgusi besh yil ichida bank tomonidan hukumatga moliyaviy va tahliliy yordam ko rsatish rejalari bayon etilgan.

HD O zbekistonga inklyuziv va barqaror bozor iqtisodiyotiga o tishda ko maklashishning ustuvor yo nalishlari sifatida quyidagilarni belgilaydi: 1) xususiy sektorda ish o rinlari sonini ko paytirish; 2) inson kapitalini rivojlantirish (tibbiyot, ta lim, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va boshqalar); shuningdek, 3) fuqarolar farovonligi va iqlim o zgarishiga chidamlilikni oshirish maqsadida iqtisodiy o sishning yanada ekologik modelini joriy etish.

HD shuningdek, mamlakat rasmiylarining gender tengsizlikni bartaraf etish, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini rag batlantirish, davlat organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligini oshirish borasidagi sa y-harakatlarini qo llab-quvvatlaydi.

2017-yildan boshlab Jahon banki tomonidan O zbekistonni moliyaviy va tahliliy qo llab-quvvatlash hajmi sezilarli darajada oshdi. Uning maqsadi bozor va makroiqtisodiy islohotlarning kompleks dasturini amalga oshirishda hukumatga ko maklashishdir.

Hozirgi vaqtda O zbekiston Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi uchinchi yirik mijozi va ushbu mintaqada Xalqaro Taraqqiyot Agentligi tomonidan eng ko p moliyalashtiriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yil 1-aprel holatiga ko ra, Jahon bankining O zbekistondagi dasturi umumiy qiymati 6,07 mlrd dollarga yaqin bo lgan 27